Tibbiy kimyo darslarida talabalarning klinik tafakkurini rivojlantirish usullari .....	606
<i>Xolmurodova D. K., Safarova N. S.</i>	
Intellektual avlod – sog'lom jamiyat poydevori: tibbiyot talabalarining o'quv jarayonida kommunikativ kompetentligiga ta'sir etuvchi psixologik omillar .....	610
<i>Tursunbekova Nozima</i>	
Sportning voleybol turi bo'yicha talabalar o'rtasida musobaqalar tashkil etish va o'tkazishda raqamli texnologiyalardan foydalanish .....	613
<i>Roziqov Normurod Elmonovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	618
<i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida alohida yordamga muhtoj bolalar integratsiyasi va korreksiyasi.....	622
<i>Olimova Nodirabegim Ibroximjon qizi, Sulaymonova Shahnoza Alisher qizi</i>	
Sportning gandbol turi bo'yicha talabalar o'rtasida musobaqalar tashkil etish va o'tkazish texnologiyalarini takomillashtirish .....	626
<i>Berdiyev Jamshid Baxriddinovich</i>	
18–21 yoshdagi talaba futbolchilarning musobaqa faoliyati jarayonida hujum harakatlarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari .....	631
<i>Djemilov Temur Rasimovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yin vositalari orqali sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar samaradorligining ahamiyati.....	636
<i>Eshpo'latova Dilnoza Mamaniyoz qizi</i>	
Ota-ona bilan munosabatlarning maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga ta'siri.....	641
<i>Izaitullayeva Lazokat Eshimboyevna</i>	
Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorligini oshirishda kompleks mashg'ulot tizimining samaradorligi.....	646
<i>Zaripova Farida Abdullayevna, Kamoliddinov Sharif Kamoliddin o'g'li</i>	
Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida sport gimnastikasi mashg'ulotlarini rejalashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari.....	650
<i>Mirzayev Dilshod Xamidovich</i>	
Mahalla – “jonli muzey”: 6–7 yoshli bolalarda milliy g'ururni lokal identifikatsiya orqali kuzatish modeli.....	654
<i>Omondavlatova Diyora Otabekovna</i>	
Yengil dizatriyali bolalarda nutqning bo'g'in tuzilishi va uning shakllanish xususiyatlari.....	658
<i>Pardayeva Muxlisa Furqat qizi</i>	
Ochilmagan bo'z qalblar hazor.....	662
<i>Eshpulatova Saodat Maxmatovna</i>	



Speaking Fluency Development Based on CEFR Linguistic.....	665
<i>Abdullayeva Charos Farkhodovna</i>	
Integrating Visual-Based Activities in English Lessons for Primary School Pupils.....	670
<i>Ataullayev Fazliddin</i>	
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligiga ta'siri .....	674
<i>Bovanova Umida Abduvahobovna, Ashurova Dildora Baxtiyor qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli .....	679
<i>Bovanova Umida Abduvahobovna, Radjabova Gulchexra Xalbayevna</i>	
Lotin tilini o'qitishda metodlarning qo'llanilishi va uning ahamiyati .....	683
<i>Eshmurodova Shirin Oybekovna</i>	
Nutqiy kompetensiyaning integratsion o'qitishda yangi metodlari va usullari.....	686
<i>Fayzullayev Sarvar Ibrohim o'g'li</i>	
Talabalarda affliativ motivatsiyani rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va komponentlari .....	689
<i>Omonova Nilufar Omon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim samaradorligini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning o'rni .....	694
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Qodirova Sarvinoz Bahodir qizi</i>	
Tikuv texnologiyalari asosida o'quvchilarning amaliy topshiriqlar bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish .....	698
<i>Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna</i>	
Bo'lajak muhandislarning xorijiy til bilish ko'nikmalarini rivojlantirishda individual va differensial yondashuvlar uyg'unligi.....	702
<i>Qurbonova Nafisa Saidjonovna</i>	
Tarbiya panin oqituv arqali oqivshilardir kreativ qabiletin rawajlandiruv.....	706
<i>Reymova Gulaim</i>	
Mirishkor toponimlarining leksik-semantik xususiyatlari .....	710
<i>Ro'ziyeva Hilola Fayzulla qizi</i>	
Taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish metodikasi.....	714
<i>Saydaxmadov A'zamxon Valixonovich, Qosimova Nargizaxon Rustamxon qizi</i>	
The Role of Music in Human Spiritual Development and Educational Significance.....	717
<i>Shokirkhonov Bakhtiyorxon Botirkhonovich</i>	
Boshlang'ich ta'limda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishning nazariy metodologik asoslari.....	722
<i>Sayfetdinova Dildora Ikramitdinovna</i>	
Gematologik-onkologik kasalliklarga chalingan o'quvchilar uchun hospital maktablarida ta'lim jarayonini tashkil etish .....	726
<i>Isamuxamedova Dildora Raxmatillayevna, Qayumova Sabrina To'liqin qizi</i>	
Neologizmlar – badiiy matnda uslubiy vosita sifatida .....	730
<i>Ibragimova Shoira Normuminovna</i>	
Optimisation of Technical and Physical Potential in the Implementation of the Rotational Method of Pushing the Core.....	733
<i>Tajimbetov Anvar Tengelbayevich</i>	
Magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish – kasbiy faoliyatda o'z-o'zini shakllantirish omili sifatida.....	736
<i>Turmatov Jaloliddin Raxmatullayevich</i>	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish modeli.....	743
<i>Usmonova Kamola Erkinovna</i>	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining ijtimoiy lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	749
<i>X. A. Suyunova</i>	
Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallarning o'rni.....	752
<i>Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna</i>	
Motivatsiya – inson faoliyatini harakatga keltiruvchi psixologik omil sifatida .....	756
<i>Yo'ldoshev Javlon Ablanazar o'g'li</i>	



Цифровые технологии и искусственный интеллект в обучении иностранным языкам: теоретико-методологический анализ .....	760
<b>Абидова М. И., Абидова Д. М.</b>	
Сюжетно-ролевая игра как способ психоэмоционального развития детей дошкольного возраста, находящихся на длительном лечении.....	764
<b>Амитова Майисия Рахмателлаевна</b>	
Эффективные приемы презентации лексики на уроках иностранного языка .....	767
<b>Гилязиева Насиба Михайловна</b>	
Речевые действия в методике формирования коммуникативной компетенции при обучении РКИ...	770
<b>Ислямова Сония Юнусовна</b>	
Трансформация ценностей, связанных с физической активностью, у представителей разных поколений: результаты современных исследований .....	779
<b>У. Ш. Салимов</b>	



## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TAKOMILLASHTIRILGAN SIFAT MENEJMENTINI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH BO'YICHA TAJRIBA-SINOV ISHLARI

Mirzayeva Shaxida Abdinabiyevna  
Oriental universiteti magistranti

Mamanazarova Nargiza Komildjanovna  
Oriental universiteti "Biznes va boshqaruv" kafedrası professori, (DSc)  
ORCID: 0009-0005-5701-8804

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifat menejmentini takomillashtirish hamda uni amaliyotga joriy etish masalalari yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi integratsiyalashgan sifat menejmenti modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini tajriba-sinov asosida aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida monitoring, pedagogik kuzatuv, diagnostika hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Olingan natijalar taklif etilgan model boshqaruv jarayonlarini tizimlashtirish va ta'lim natijalarini yaxshilashga xizmat qilishini ko'rsatdi. Ilmiy yangilik sifatida sifat menejmenti indikatorlari tizimi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, sifat menejmenti, boshqaruv samaradorligi, monitoring, tajriba-sinov, indikatorlar tizimi.

**Abstract:** This article examines the improvement and practical implementation of quality management systems in preschool educational institutions. The purpose of the study is to develop an integrated quality management model and assess its effectiveness through experimental testing. Monitoring, pedagogical diagnostics and comparative analysis methods were applied. The results confirm that the proposed model improves management efficiency and enhances educational outcomes. The scientific novelty lies in the development of a system of quality management indicators.

**Key words:** preschool education, quality management, management efficiency, monitoring, experiment.

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы совершенствования менеджмента качества в дошкольных образовательных организациях и его внедрения в практику. Цель исследования заключается в разработке интегрированной модели управления качеством и определении ее эффективности на основе экспериментальной апробации. В работе использованы методы мониторинга, педагогической диагностики и сравнительного анализа. Результаты показали, что внедрение предложенной модели способствует повышению эффективности управления и улучшению образовательных результатов. Научная новизна исследования заключается в разработке системы индикаторов оценки качества управления.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, менеджмент качества, эффективность управления, мониторинг, эксперимент.

### KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimi jamiyatning barqaror rivojlanishida strategik ahamiyatga ega bo'lgan bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda shaxsning intellektual, ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalari shakllanadi. So'nggi yillarda ta'lim sifati masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan bo'lsa-da, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv jarayonlarini zamonaviy sifat menejmenti tamoyillari asosida tashkil etish masalasi yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab tashkilotlarda ichki monitoring mexanizmlari sust ishlaydi, natijadorlik ko'rsatkichlari aniq mezonlar asosida baholanmaydi va strategik rejalashtirish yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Bu esa ta'lim sifati barqarorligini ta'minlashga to'sqinlik qiladi. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifat menejmentini takomillashtirish, uni ilmiy asoslangan indikatorlar tizimi orqali baholash va amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Zamonaviy boshqaruv nazariyasida sifat menejmenti uzluksiz takomillashtirish, tizimlilik va natijadorlik tamoyillariga asoslanadi. Ushbu yondashuvni maktabgacha ta'lim tizimiga integratsiya qilish orqali nafaqat



pedagogik jarayon samaradorligini oshirish, balki boshqaruvning shaffofligi va hisobdorligini ta'minlash mumkin. Ayniqsa, raqamli monitoring vositalari, ichki audit tizimi hamda manfaatdor tomonlar, jumladan ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish sifat menejmentining muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida takomillashtirilgan sifat menejmenti modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini tajriba-sinov asosida aniqlash zarurati yuzaga keladi.

Tadqiqot obyekti sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv jarayoni tanlandi. Tadqiqot predmeti esa mazkur tashkilotlarda sifat menejmentini takomillashtirish mexanizmlari va indikatorlar tizimidan iborat. Tadqiqotning maqsadi maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatida sifat menejmentining integratsiyalashgan modelini ishlab chiqish hamda uning boshqaruv samaradorligiga ta'sirini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun mavjud boshqaruv tizimini tahlil qilish, sifat ko'rsatkichlarini aniqlash va tizimlashtirish, taklif etilgan modelni amaliyotga joriy etish hamda tajriba-sinov natijalarini qiyosiy baholash vazifalari belgilandi. Mazkur vazifalarning izchil amalga oshirilishi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifatni boshqarishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim tizimida sifat menejmenti masalalari xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan turli ilmiy yo'nalishlarda o'rganilgan. Sifat menejmentining nazariy asoslari, avvalo, umumiy boshqaruv konsepsiyalariga tayanadi. Deming tomonidan ilgari surilgan uzluksiz takomillashtirish tamoyili ta'lim tizimida jarayonlarni doimiy ravishda yaxshilash g'oyasiga asos bo'ladi <sup>[1]</sup>. Juran esa sifatni rejalashtirish, nazorat qilish va takomillashtirish bosqichlarini tizimli boshqaruvning ajralmas qismi sifatida talqin qiladi <sup>[2]</sup>. Ushbu yondashuvlar ta'lim tashkilotlarida sifatni strategik boshqarish va natijadorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Ta'lim sohasida sifatni boshqarish masalalari pedagogik nuqtai nazardan ham o'rganilgan. Bepalko pedagogik texnologiyalarni tizimli tashkil etish orqali ta'lim natijalarini kafolatlash mumkinligini asoslab bergan <sup>[3]</sup>. Zimnyaya esa ta'lim jarayonida sifat ko'rsatkichlarini pedagogik va psixologik omillar bilan bog'liq holda tahlil qiladi <sup>[4]</sup>. Ushbu ishlarda sifat tushunchasi asosan pedagogik jarayon samaradorligi bilan izohlanadi, biroq boshqaruv mexanizmlarining indikatorlar tizimi yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Maktabgacha ta'lim sohasida sifatni oshirish masalalari O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ham alohida qayd etilgan bo'lib, unda ta'lim sifatini monitoring qilish va nazorat mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi belgilangan <sup>[5]</sup>. So'nggi yillarda mahalliy tadqiqotlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruvni modernizatsiya qilish, ichki nazorat tizimini kuchaytirish va ota-onalar bilan hamkorlikni rivojlantirish masalalari ko'tarilgan. Biroq aksariyat ilmiy ishlarda sifat menejmenti umumiy yondashuv sifatida talqin qilinib, amaliy indikatorlar tizimi hamda tajriba-sinov asosida baholash mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Mazkur tadqiqotning o'ziga xosligi shundan iboratki, unda sifat menejmentining nazariy tamoyillari <sup>[1;2]</sup> maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatiga moslashtirilib, kompleks indikatorlar tizimi ishlab chiqildi va amaliy tajriba orqali baholandi. Taklif etilgan model boshqaruv samaradorligi, pedagogik jarayon sifati, ota-onalar qoniqishi va ichki monitoring mezonlarini o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv mavjud ilmiy ishlardan farqli ravishda nazariy asoslash bilan bir qatorda empirik sinov natijalari bilan ham mustahkamlandi.

## TADDIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifat menejmentini takomillashtirish jarayonini tizimli va empirik asosda o'rganishga yo'naltirildi. Mazkur maqolada kompleks yondashuv qo'llanilib, tizimli tahlil, qiyosiy taqqoslash, pedagogik kuzatuv, diagnostik so'rovnomalar, monitoring hamda statistik qayta ishlash usullaridan foydalanildi. Metodologik asos sifatida sifatni uzluksiz takomillashtirish tamoyillari qabul qilindi, chunki sifat menejmenti boshqaruv jarayonining doimiy rivojlanishini nazarda tutadi <sup>[1]</sup>. Shu bilan birga, sifatni rejalashtirish va nazorat qilish bosqichlari tadqiqot jarayonining strukturaviy modeli sifatida asos qilib olindi <sup>[2]</sup>.

Dastlab nazariy tahlil usuli yordamida mavjud ilmiy manbalar o'rganildi va sifat menejmentining ta'lim sohasiga integratsiyasi masalalari aniqlashtirildi. Pedagogik tizimni loyihalash va natijadorlikni kafolatlash masalalari Bepalko tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlar asosida tahlil qilindi <sup>[3]</sup>. Ta'lim jarayonining psixologik omillari ham sifat ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi muhim komponent sifatida ko'rib chiqildi <sup>[4]</sup>. Nazariy tahlil natijasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun mos indikatorlar tizimini ishlab chiqish zarurati asoslandi.

Keyingi bosqichda qiyosiy taqqoslash usuli qo'llanildi. Ushbu usul tajriba va nazorat guruhlaridagi boshqaruv ko'rsatkichlarini solishtirish orqali taklif etilgan model samaradorligini aniqlash imkonini berdi. Qiyosiy tahlil dastlabki diagnostika natijalari hamda tajriba yakunidagi ko'rsatkichlarni o'zaro taqqoslash asosida amalga oshirildi. Natijada tajriba guruhida sifat ko'rsatkichlarining barqaror o'sishi qayd etildi, bu esa uzluksiz takomillashtirish tamoyilining amaliy samaradorligini tasdiqladi <sup>[1]</sup>.

Pedagogik kuzatuv usuli orqali boshqaruv jarayonining real holati o'rganildi, ichki monitoring mexanizmlarining samaradorligi baholandi. Diagnostik so'rovnoma pedagoglar va ota-onalar fikrini aniqlash, qoniqish darajasini o'lchash hamda kommunikatsiya sifatini baholash uchun qo'llanildi. Monitoring jarayonida ishlab chiqilgan indikatorlar ta'lim sifatini nazorat qilishning institutsional mexanizmlariga mos holda ishlab chiqildi, bu esa milliy normativ talablar bilan uyg'unlikni ta'minladi <sup>[5]</sup>.

Statistik qayta ishlash usuli natijalarning ishonchligini ta'minlashga xizmat qildi. O'rtacha ko'rsatkichlar, foizli o'sish dinamikasi hamda guruhlar o'rtasidagi farqlar aniqlanib, qiyosiy tahlil qilindi. Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, taklif etilgan sifat menejmenti modeli boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, qo'llanilgan metodologiya nazariy va empirik yondashuvni uyg'unlashtirib, sifat menejmentini takomillashtirish modelining amaliy samaradorligini ilmiy asosda tasdiqladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifat menejmenti tizimining amaldagi holati chuqur tahlil qilindi. Dastlabki bosqichda diagnostik monitoring o'tkazilib, boshqaruv samaradorligi, pedagogik jarayon sifati, ota-onalar qoniqish darajasi hamda ichki nazorat tizimi ko'rsatkichlari baholandi. Tahlil natijalari mavjud boshqaruv tizimida ayrim tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Jumladan, strategik rejalashtirish mexanizmlarining yetarli darajada ishlab chiqilmagani, ichki monitoringning muntazam emasligi hamda pedagoglar faoliyatini baholash mezonlarining aniq tizimlashtirilmaganligi aniqladi.


Tajriba-sinov ishlari ikki maktabgacha ta'lim tashkilotida olib borildi. Ulardan biri nazorat guruhi, ikkinchisi esa tajriba guruhi sifatida tanlandi. Tajriba guruhida takomillashtirilgan sifat menejmenti modeli joriy etildi va 6 oy davomida monitoring asosida kuzatuv olib borildi. Quyidagi jadvalda dastlabki va yakuniy ko'rsatkichlarning qiyosiy natijalari keltirilgan.

1-jadval: Sifat ko'rsatkichlarining qiyosiy natijalari (%)

Ko'rsatkich	Dastlabki holat (nazorat)	Yakuniy holat (nazorat)	Dastlabki holat (tajriba)	Yakuniy holat (tajriba)
Boshqaruv samaradorligi	69	72	68	84
Pedagogik jarayon sifati	71	73	70	87
Ota-onalar qoniqishi	66	69	65	89
Ichki monitoring tizimi	62	64	60	85

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, nazorat guruhida ko'rsatkichlar o'rtacha 2–3 foizga oshgan bo'lsa, tajriba guruhida sezilarli o'sish kuzatildi. Ayniqsa, ichki monitoring tizimi 25 foizga oshgani modelning samaradorligini tasdiqlaydi. Bu ko'rsatkich boshqaruv jarayonining tizimlashtirilganligi va muntazam nazorat mexanizmlarining joriy etilishi bilan izohlanadi.

Olingan natijalarni yanada aniqroq tasavvur qilish uchun dinamik o'sish diagrammasi ishlab chiqildi.



1-diagramma: Tajriba guruhida sifat ko'rsatkichlarining o'sish dinamikasi



Diagramma tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori o'sish ota-onalar qoniqishi hamda ichki monitoring tizimi ko'rsatkichlarida qayd etilgan. Bu esa boshqaruvning ochiqiqligi va kommunikativ mexanizmlarning kuchaytirilishi bilan bog'liq. Pedagogik jarayon sifati ko'rsatkichlarining o'sishi esa metodik nazorat va ichki audit mexanizmlarining joriy etilishi natijasida yuzaga kelgan.

Tahlil jarayonida bir qator muammolar ham aniqladi. Jumladan, ayrim pedagoglarda sifat menejmenti tamoyillari bo'yicha bilim yetishmasligi, raqamli monitoring vositalaridan foydalanish ko'nikmalarining sustligi hamda dastlabki bosqichda ichki qarshiliklar kuzatildi. Biroq muntazam metodik seminarlar va tushuntirish ishlari natijasida ushbu muammolar bosqichma-bosqich bartaraf etildi.

Statistik tahlil natijalari tajriba va nazorat guruhlarini o'rtasidagi farqning sezilarli ekanligini ko'rsatdi. O'rtacha o'sish darajasi tajriba guruhida 20 foizdan ortiqni tashkil etdi. Bu takomillashtirilgan sifat menejmenti modelining amaliy samaradorligini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Shunday qilib, tahlil natijalari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifat menejmentini tizimli va indikatorlarga asoslangan yondashuv orqali joriy etish boshqaruv samaradorligini oshirishini ko'rsatdi. Tajriba-sinov ishlari modelning barqaror natija berishini hamda sifat ko'rsatkichlarini muntazam nazorat qilish orqali ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish mumkinligini isbotladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifat menejmentini tizimli yondashuv asosida joriy etish boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Tajriba-sinov ishlari davomida ishlab chiqilgan indikatorlar tizimi boshqaruv jarayonlarini aniq mezonlar asosida baholash, ichki monitoringni kuchaytirish hamda pedagogik faoliyatni muvofiqlashtirish imkonini berdi. Qiyosiy tahlil natijalari tajriba guruhida boshqaruv samaradorligi, pedagogik jarayon sifati, ota-onalar qoniqishi va ichki nazorat mexanizmlarining barqaror o'sishini tasdiqladi. Bu esa taklif etilgan sifat menejmenti modelining amaliy samaradorligini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qildi.

Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida bir qator muammolar ham aniqladi. Jumladan, ayrim pedagog va rahbarlarda sifat menejmenti tamoyillari bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarining shakllanmaganligi, raqamli monitoring vositalaridan foydalanish darajasining pastligi hamda ichki audit jarayonlarining tizimlashtirilmaganligi kuzatildi. Ayrim hollarda tashkiliy qarshilik va yangilikka nisbatan ehtiyotkorlik ham jarayon samaradorligiga ta'sir ko'rsatdi. Bu holatlar sifat menejmentini joriy etishda faqat metodik emas, balki tashkiliy va motivatsion yondashuv ham zarurligini ko'rsatadi.

Olingan natijalar asosida quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari suriladi. Avvalo, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifat menejmenti indikatorlari asosida muntazam monitoring tizimini yo'lga qo'yish zarur. Bunda boshqaruv samaradorligi, pedagogik jarayon natijadorligi va manfaatdor tomonlar qoniqishi mezonlari integratsiyalashgan holda baholanishi lozim. Ikkinchidan, rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirish dasturlariga sifat menejmenti va ta'lim monitoringi bo'yicha maxsus modullarni kiritish maqsadga muvofiqdir. Bu sifatni boshqarish jarayonining ilmiy asosda olib borilishini ta'minlaydi.

Shuningdek, raqamli boshqaruv va tahlil vositalarini keng joriy etish tavsiya etiladi. Elektron monitoring platformalari orqali ma'lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish boshqaruv qarorlarining tezkorligi va aniqligini oshiradi. Ota-onalar bilan hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish, ularning fikrini muntazam ravishda o'rganish va tahlil qilish ham sifat ko'rsatkichlarini barqaror oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida takomillashtirilgan sifat menejmenti modelini joriy etish boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish hamda barqaror rivojlanish strategiyasini shakllantirishga imkon beradi. Kelgusida ushbu modelni kengroq miqyosda sinovdan o'tkazish va hududiy kesimda taqqoslash tadqiqotlari olib borish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Deming W. E. Out of the Crisis. – Cambridge : MIT Press, 1986. – 507 p.
2. Juran J. M. Quality Control Handbook. – New York : McGraw-Hill, 1999. – 1730 p.
3. Беспалько В. П. Слабеваемые педагогической технологии. – М. : Педагогика, 1989. – 192 с.
4. Зимняя И. А. Педагогическая психология. – М. : Логос, 2000. – 384 с.
5. O'zbekiston Respublikasi. Maktabgacha ta'lim to'g'risida : O'zbekiston Respublikasining Qonuni. – Toshkent, 2019.
6. ISO 9001:2015. Quality management systems – Requirements. – Geneva : International Organization for Standardization, 2015.
7. Starting Strong V: Transitions from Early Childhood Education and Care to Primary Education. – Paris : OECD Publishing, 2018. – 228 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №2(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.